

## HARBIY XIZMATCHILARNING KASBIY ONGINI RIVOJLANTIRISH UZLUKSIZ JARAYON SIFATIDA

*Ergashev Elyor Urdushevich,  
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi  
Universiteti mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada uzluksiz ta'lif va uzluksiz tarbiya bir-biri bilan chambarchas bog'liqligi, kasbiy ongni elementlari haqida tassavurga ega bo'lishi, harbiy xizmatchilarni kasbiy ongini rivojlantirishda kasbiy ta'lif ham jarayon, ham faoliyat sifatida ekanligi yoritib berishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy tarbiya, tarbiyada uzluksizlik, ta'lifda uzluksizlik, kasbiy ong, kasbiy ongni elementlari, ong formulasi.

Kasbiy ongni rivojlantirish bu uzluksiz jarayon hisoblanadi, uzluksizlik asosan shaxsni rivojlantirishga yo'naltiradi. Ta'lifda, tarbiyada uzluksizlikning mohiyatini tarbiyadagi olimlar, amaliyotchilar turlicha tushunishadi va yondashishda aslida uzluksizlik bu harbiy xizmatchini professional bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi.

Uzluksiz ta'lif va uzluksiz tarbiya bir-biri bilan chambarchaas bog'liq, bir-birini mazmunini to'ldiradi. Uzluksiz ta'lif kasbiy ongni boyitadi va ongni takomillashishiga xizmat qiladi. Har bir harbiy xizmatchi kasbiy ongini boyitish uchun o'zini ustida individual ishlaydi, pedagoglar yordamida bilimini boyitib boradi.

Kasbiy ongni rivojlantirish eng avvalo harbiy xizmatchining o'ziga bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan uni o'rab turgan muhitga ham bevosita va bilvosita bog'liqdir. Harbiy xizmatchining kasbiy ongini rivojlantirishda tarbiyachi sub'ektlarning ya'ni komandirlarni, pedagoglarni, murabbiylarning roli beqiyosdir. Harbiy xizmatchi doimo kasbiy ijtimoiy munosabatlarga kirishar ekan, eng avvalo ular kasbiy ongni elementlari haqida tassavurga ega bo'lishi talab etiladi<sup>1</sup>. Kasbiy ongda oddiylikdan murakkablikga qarab takomillashtirish muhim hisoblanadi. Kasbiy ong kasbiy madaniyatning bir bo'lagi hisoblanadi. Kasbiy madaniyatni rivojlantirishga bevosita kasbiy ongning ta'siri bor, kasbiy ong+ kasbiy madaniyat = kasbiy proffessionalizmni yuzaga keltiradi (1-rasm). Uzliksizni asosini mantiqiylik tashkil etadi. Uzluksizlik o'zi nima? degan savolga javob turlicha, lekin uning o'zini ma'no mazmunini ochib berishga harakat qilamiz.

<sup>1</sup> Ergashev E.U. Kasbiy ongni rivojlantirish. O'quv qo'llanma. T.: JXU, 2023. – 33 bet.

## KASBIY ONG

## KASBIY MADANIYAT

## KASBIY PROFESSIONALIZM

### 1-rasm. Kasbiy ong formulasi

Uzluksizlik bu oddiy tilda aytganimizda ketma-ketlik, zanjir ma'nolarida tushuniladi, ayniqsa jarayon sifatida o'rganiladi<sup>2</sup>. Uzluksizlik bu tarbiyada, ta'limda va ijtimoiy turmushimizdagi barcha jarayonlarda bo'ladi. Shuning uchun uzluksizlikni ta'minlash orqali harbiy xizmatchida harbiy ong rivojlanadi. Kasbiy ongni rivojlanishiga harbiy xizmatchining xizmat olib borayotgan xizmat bo'linmalari, komandirlari, xizmatdoshlarining ta'siri beqiyosdir.

Uzluksizlik tushunchasi inson kasbiy faoliyatini barcha turlariga ta'luqli, ayniqsa, kasb orqali harbiy xizmatchi kasbga, faoliyatga ko'nikadi, shakllanadi. Kasbiy ongni rivojlantirish o'qish orqali, xizmat faoliyati davrida, o'zini ustida ishslash jarayonida amalga oshiriladi. Harbiy xizmatchilar kasbiy ongini rivojlantirishda kabiy ong amaliy mashg'ulotlari, poligondagi mashg'ulotlari ham o'ziga xos tajriba makteblari hisoblanadi.

Kasbiy ong kasbning mohiyati atrofida shakllanib qolmaydi, balki kasb bilan bog'liq barcha muammolarni yechish orqali ham shakllanadi. Uzliksizlik ham bevosita ushbu muammoni hal qilishga xizmat qiladi. Bugungi shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamonamizda, har bir harbiy xizmatchi kasbga sadoqat bilan xizmat qiladi shundagina jamiyat, davlat mustahkam bo'ladi, bugungi kun talabi, davlat rahbarini ham talabi shunday.

Uzliksizlikni harbiy xizmatchi oliy harbiy ta'lim muassasalarida, malaka oshirishda, o'zini ustida ishslashda, xizmat jarayonidagi faoliyatlarida amalga oshiriladi.

Uzliksizlikni ta'minlovchi sub'ektlar tizimi ishlasagina uzliksizlik jarayoni ta'minlanadi. Sub'ektlar tizimidagi biron-bir sub'ektni ishlamay qolishi uzliksizlikni yo'qqa chiqaradi, zanjir uzuladi. Uzliksizlik professionallikni ham ta'minlashga yordam beradi.

Harbiy xizmatchilarning kasbiy tafakkuri ham bevosita uzluksilikni ta'minlashga

<sup>2</sup> Xodiev R.X. Uzuluksiz ta'lim jarayonini takomillashtirishda asosiy usul sifatida. T.: JXU axborotnomasi №3, 2023. – 31 bet.

xizmat qiladi. Taffakur qilishimizni ta'minlovchi organizmimiz bizning ongimiz. Ong bu har qanday murakkab operatsiyalarni boshqarishga xizmat qiladi. Demak, fikrlashga xizmat qiladigan bu miyamiz. Ong miyaning mahsulidir. Miyadagi, fikrlashdagi tiniqlik, oydinlashuv o'sha fikr egasining mashaqatli mehnati, tinimsiz ilmlar dunyosida to'kkon zaxmatimiz evaziga ro'y beradi.

Kasbiy ong kasbiy ko'nikma va amaliy o'qitishning asosiy negizlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Malaka o'zi nima? Inson faoliyatida maqsadga yo'naltirilgan say'i harakatlari ijro etish va boshqarishning muayyan darajada avtomatlashuvi malaka deyiladi<sup>3</sup>. Kasbiy ongni rivojlantirishda kasbiy ta'lim o'ziga xos o'rin egallaydi, ya'ni kasbiy ta'lim ham jarayon, ham faoliyat sifatida harbiy xizmatchini hayotida muhim rol o'ynaydi va muayyan davr uchun yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Kasbiy ongni rivojlantirishda uzluksizlik to'g'risida fikr yuritar ekanmiz kasbiy ong harbiy xizmatchini kasbiy va xizmat vazifalarini bajarishga ham ko'p jihatdan bog'liq, ko'p hollarda harbiy xizmatchilar axborot oluvchi, yig'uvchiga aylanib qoladi. Bu esa kasbiy ongni bir tomonlama shakllanishiga xizmat qiladi.

Kasbiy ongni rivojlantirish avvalo harbiy xizmatchini kasbiy madaniyatiga ham o'zini ta'sirini ko'rsatadi. Harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyati bu keng tushuncha bo'lib, kasbiy ongni targ'ibotiga va tashviqotiga qaratiladi, tashviqot orqali esa amalga oshiriladi. Kasbiy madaniyat tushunchasiga quyidagicha ta'rif berishga harakat qilamiz Ya'ni, "harbiy xizmatchilarning kasbiy madaniyati bu kasb haqidagi bilimlarga ega bo'lish boshqa safdoshlaridan ham kasb madaniyatiga ega bo'lgan xislatlarni talab qila oladigan shaxslar"ni kasbiy madaniyatli harbiy xizmatchilar deb tushunsak bo'ladi<sup>4</sup>.

Kasbiy ong – shaxs bor ekanki, unga xizmat qiladi, shuning uchun ham uzuluksiz jarayon sifatida harbiy xizmatchida namoyon bo'ladi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ergashev E.U. Kasbiy ongni rivojlantirish. O'quv qo'llanma. T.: JXU, 2023. – 33 bet.
2. Xodiev R.X. Uzuluksiz ta'lim jarayonini takomillashtirishda asosiy usul sifatida. T.: JXU axborotnomasi №3, 2023. – 31 bet.
3. Mahmudov R.M. Pedagogik psixologiya. Ma'ruzalar kursi. T.:2013. bet 114.
4. Ergashev E.U. Kasbiy ongni rivojlantirishda kasbiy madaniyatning roli va o'rni. O'quv qo'llanma. T.: JXU axborotnomasi №1, 2022. – b 10.

<sup>3</sup>Mahmudov R.M. Pedagogik psixologiya. Ma'ruzalar kursi. T.:2013. bet 114.

<sup>4</sup>Ergashev E.U. Kasbiy ongni rivojlantirishda kasbiy madaniyatning roli va o'rni. O'quv qo'llanma. T.: JXU axborotnomasi №1, 2022. – b 10.